

O'ZBEKISTON
REPUBLIKASI

Ona yurting - oltin beshiging

TONG

Yulduzi

№42 (66375)

2002 yil

14 oktabr,

dushanba

Sotuvda

erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan.

OLMONTYALIK YOSHALAR

QANDAY YASHAYDILAR?

«Ashula darsiga jiddiy qaraymiz».

«Bizda ta'lif birinchi o'rinda», deyishadi germaniyalik o'quvchilar.

«Miriqib dam olishni qoyillatamiz».



Xorijdagi tengdoshlaringiz hayoti bilan batafsilroq tanishmoqchi bo'lsangiz, 8-9 sahifalarni o'qing.

Maktabim uyimizdan ancha olisda bo'lganligi sababli avtobusda o'qishga qatnayman. Har tong bekatda mактабга, олий о'quv yurtlariga, ishga shoshayotgan odamlarni asabiy holatda transport kutib turganliklarining guvohi bo'laman. Boshqa joylarda qanaqaligini bilmaymanu biz yashaydigan Akmal Ikromov tumanida transport qatnovi unchalik yaxshi emas. Masalan, 53, 14, 114, 87, 64, 116, 34 - avtobuslarni kutaverib, toqatimiz toq bo'ladi. Ba'zida soatlab bekatda o'tirishga to'g'ri keladi.

Yurtimiz kundan-kunga ravnaq topib bormoqda. Shahrimiz ko'chalarida

qatnayotgan shinam, ko'r kam, qulay transport vositalarini ko'rib, ko'zingiz quvnaydi. Poytaxtimizga ta'lif olish uchun kelayotgan o'quvchilar, chet ellik mehmonlarning ko'payib borayotgani yaxshi albatta. Shuning barobarida transport vositalariga bo'layotgan talab ham ortib boryapti...

Bizlarga «Kattalarga hurmatda, kichikka izzatda bo'linglar», - deya tarbiya berishgan. Qariyalarni hurmat qilib, ularni eng avval avtobusga chiqaramiz, joy beramiz. Shunday holatlar bo'ladiki,

h u r m a t
y u z a s i d a n
h a m m a n i

o'tkazib yuborib, o'zim avtobus bekatida qolib ketaman. Keyin darsga


kechikib borishga va o'qituvchidan gap eshitishga to'g'ri keladi. Ertalabki kayfiyat inson ruhiga kun davomida o'z ta'sirini o'tkazadi. Bunday kayfiyatda qanday qilib yaxshi o'qish yoki ishlash mumkin. Bu muammoni kim hal qiladi? Doimiy kech qolishlar, asabiyliklar qachongacha davom etarkin-a?..

Munisaxon AHMADXO'JAYEVA,
Toshkent shahar,

Akmal Ikromov tumanidagi
116 - mактабning 8- «B» sinf
o'quvchisi.

Sababi u'yquchilikdami yo..?

O'zbekiston Konstitutsiyasining 10 yilligi oldidan



Avval xabar beranimizdek, Konstitutsiyamizning o'n yilligi munosabati bilan joylarda «Konstitutsiyamiz - baxtimiz poydevori» shiori ostida ko'rik-tanlov o'tkazilyapti. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi, Respublika «Tasviriy oyina» ijodiy uyushmasi, Adliya vazirligi, Respublika Badiiy Akademiyasi

bilan hamkorlikda o'tkazilayotgan ko'rik- tanloving

HUQUQIY

navbatdagi viloyat bosqichini Qashqadaryo viloyatida bo'lib o'tdi.

Maktablararo o'tkazilgan ko'rik-tanlovda ellik mingga yaqin o'quvchilar ishtirok etdilar. Ularning

insholari, bayonlari, badiiy

Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiylar ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir.

Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar.
41 - modda.

rasmlari, plakatlari-yu fotosuratlari hay'at a'zolari tomonidan munosib baholandi. G'oliblarning eng sara ishlari viloyat bosqichiga yo'llanma oldi.

Mazkur viloyat bosqichi

uch yo'nalishda bo'lib o'tdi. 5 - 6 - 7 - s i n f o'quvchilarining bayonlari, 8-9-sinf o'quvchilarining

TA'LIM BILIMDONLARI

insholari, Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini ifodalovchi eng yaxshi rasmlar, plakatlar, fotosuratlar, chizmalar ko'rik-tanlovga qo'yildi.

Konstitutsyaning asl mohiyatini o'quvchilar ongiga puxta singdirish, maktablarni O'zbekiston Konstitutsiyasining asosiy g'oyalari va mohiyatini yorqin ifodalovchi suratlar bilan bezatish, shu mavzuda ta'sirchan tadbirlar uyushtirish ishlariga ham katta e'tibor qaratildi.

Insholar yo'nalishi bo'yicha ishtirok etgan Qarshi shahridagi 3 - o'rta

maktabning 10-sinf o'quvchisi Gavhar Abdurahimova o'n to'qqiz ball

to'plab, birinchi o'rinni egalladi.


O'nyetti b a l l to'plagan Shahrисабз туманидаги

31 - maktabning 10-sinf

o'quvchisi Mo'tabar Musurmonovaga ikkinchi o'rinnasib etdi.

Va nihoyat uchinchi o'rino'nolti ball to'plagan Kitob туманидаги 31 - maktabning 10-sinf o'quvchisi Madina Ro'ziyevaning inshosi uchun berildi.

Ikkinci yo'nalishda bayonlar bo'yicha qatnashgan G'uzor






tumanidagi 15 - matabning 6-sinf o'quvchisi Xurshida Sherova o'n to'qqiz ball to'pladi va birinchi o'rinni sohibiga aylandi.

Qamashi tumanidagi 72 - matabning 7-sinf o'quvchisi Gavhar Sadiyeva o'n olti ball to'plab, ikkinchi o'rinni egalladi.

Koson tumanidagi 1 - matabning 5-sinf o'quvchisi Maftuna Rizaqulova o'n to'rt ball to'plab, uchinchi o'ringa loyiq deb topildi.

Uchinchi yo'nalish, rasmlar, plakatlar bo'yicha birinchi o'rinni Qarshi shahridagi 9 - matabning 8-sinf o'quvchisi Lazizbek Luqmonovga berildi. Lazizbek o'n to'qqiz ball to'pladi. Uning chizgilari atrofdagilarning diqqatini tortdi.



Lazizbek matabda a'lo baholarga o'qish bilan birga kelgusida yaxshi rassom bo'lishni orzulaydi. Shuning uchun ham hamisha o'z ustida tinimsiz mehnat qiladi. «Qancha ko'p

o'qisam, shuncha kam bilishimni his qilayapman» deydi u.

Shahrisabz tumanidagi 13 - matabning 8-sinf o'quvchisi Sarvar Qurbonovga ikkinchi o'rinni nasib etdi.

Uchinchi o'ringa kosonlik Go'zal Nazarovaning chizgilari loyiq deb

Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarning vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarni rag'batlantiradi.

Oila. 64 - modda.

topildi.

Yuqoridagi o'quvchilar navbatdagi «Konstitutsiyamiz - baxtimiz poydevori» shiori ostida bo'ladigan Respublika bosqichiga yo'llanma oldilar.

Ushbu ko'rik-tanlov b a h o n a viloyatlarimizning chekkä- chekka qishloqlaridagi talaygina iste'dodli o'g'il-qizlar «kashf etildi».

I s h o n a m i z k i , O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bilimdonlari Respublika bösqichida ham bo'sh kelmaydilar.

Feruza SOYIBJON qizi.

Prezident asarlarini o'rganamiz

MILLIY ISTIQLOL G'OYASI: ASOSIY TUSHUNCHА VA TAMOYILLAR

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

Istiqlol mafkurasining falsafasi, uning ma'no-mazmuni, asosiy g'oya va tamoyillari milliy davlatchiligidimizni qayta tiklab, jamiyatimizning taraqqiyot yo'lini nazariy va amaliy jihatdan asoslab bergan Islom Karimov asarlarida chuqur ifodasini topgan. Ularda mamlakatimizning rivojlanish yo'li, uning o'ziga xos xususiyat va qonuniyatlarining amalga oshish dialektikasi ilmiy nuqtai nazardan aniq belgilab berilgan.

Milliy istiqlol mafkurasining falsafiy asosi, shuningdek, qadimgi sharq, yunon, rim va boshqa falsafa matablarining merosiga ham tayanadi.

Xususan, Sokrat, Platon, Aristotel singari mutafakkirlarning asrlar davomida o'z qadr-qimmatini yo'qotmay kelayotgan fikrlari, jahon falsafasining o'rta asrlar va yangi zamondagi namoyandalari qarashlari ham milliy istiqlol mafkurasini tamoyillarini asoslash va boyitish, ularga hayotiy ruh bag'ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Konfutsiyning falsafiy hikmatlari, Platonning «G'oyalar dunyosi va soyalar dunyosi» to'g'risidagi ta'limoti, Gegel dialektikasi, gumanistik zamonaviy falsafiy oqimlar ilgari surayotgan g'oyalar ham milliy istiqlol mafkurasining umuminsoniy asoslaridir.

3. Milliy va umuminsoniy tamoyillari

Istiqlol mafkurasi xalqimizning tabiatni, irodasi, orzu-intilishlarini ifodalaydigan quyidagi **milliy xususiyatlarni** zamon talablari asosida yanada boyitishni nazarda tutadi:

(Davomi bor.)



O'tgan yili men rahbarlik qilayotgan sinfga Mirzo Ulug'bek tumanidagi 27 - son rus maktabidan bir o'quvchi keldi. Ko'rinishidan bosiqqina, yaxshi bolaga o'xshadi. Men nima uchun o'zbek maktabiga o'tganining sababini so'raganimda, ular avvallari Belorussiyada yashaganliklari bois, rus maktabiga borganligini aytди. Bolakayning qiziqish va intilishlari bilan qiziqdidi:

-Men Respublika bolalar badiiy ijodiyoti markazida Gulzora opa Sultanova rahbarligidagi kulolchilik, Mirzo Ulug'bek tumanidagi Yelena

Radjibayeva boshchiligidagi rassomlik sinfida o'qiyma,-deya so'z boshladi u.- Shu

OQ YO'L, SUHROB!



*o'qish davrimda
buyuk ajdodlarimiz,
taniqli o'zbek
rassomlari haqida
juda ko'p
narsalarni bilib
oldim. Ularning
yozgagan
asarlarini o'z
ona tilimda*



*o'rganishni, o'zim ham ular
haqida asarlar yaratishni orzu
qilaman, -dedi. O'zi yosh bo'la turib,
oldiga katta niyatlar qo'ygan bu bola
bilan barcha o'quvchilarim tezda
chiqishib ketishdi. U lotin alifbosini ham
tezgina o'zlashtirib oldi. Darsdan so'ng
ustozlari bilan tinmay dars tayyorladi.
Tez kunda a'lochilar qatoridan o'rin oldi.
Yunusobod tumanidagi maktablararo*

shaxmat musobaqasida tengqurlari orasida birinchi o'rinni qo'lga kiritgan bo'lsa, o'zi o'qiydigan rassomchilik maktablarida ham yaxshi ko'rsatkichlari uchun sovg'alar bilan taqdirlanib kelyapti. To'rtinchisinfni a'lo baholarga tugatib, Faxriy yorliq bilan mukofotlandi. Yosh bo'lsa-da, katta orzular bilan yashayotgan bu shogirdimdan umidim katta.

Sinfimni bu yil boshqa ustozga topshirdim. O'quvchilarim kelajakda mening va boshqa ustozlarining ishonchini oqlashlariga umid qilaman.

Dilbar MIRSODIQOVA,
Toshkent shahri,
Yunusobod tumanidagi
239 - maktabning boshlang'ich
sinfo'qituvchisi.

FIDOIY INSONLARGA TA'ZIM

Ilk bora jazzi qo'limizga qalam tutqazib, sabr-toqat bilan yozishni, chizishni o'rgatgan ham, dunyo ilmlaridan bahramand etib, ta'lim-tarbiya bergen ham muallimdir.

Ustozlar bizga bilim beribgina qolmay, bor mehrlarini beradilar. Biz - yoshlarni Vataniga, xalqiga jonini fido qilishga tayyor halol insonlar qilib tarbiyalaydilar.

Mana shunday mo'tabar insonlarni har qancha e'zozlasak ozlik qiladi. Bizning maktabimiz o'qituvchilarini ham ana shunday fidoiy insonlardir. Ulardan Muhammadvali aka Mamatvaliyev, Jamilaxon opa G'ofurova, Tohirjon aka Rafiqov, Olimjon aka Dadaboyev, Zulayxo opa Po'latova, Qodirjon aka Isoqov kabilarning bizga bergen ta'lim- tarbiyalari hamisha qalbimizda.

Mehribon ustozlar! Sizlarga va barcha ustozlarga qarata sog'-salomat bo'ling, degimiz keladi. Doimo yaxshi kayfiyat hamrohingiz bo'lsin.

Gulnoza NAJMIDDINOVA,
Namangan viloyati, Chortoq tumanidagi 22-
maktabning
11- «A» sinfo'qituvchisi.

Biz 116 - maktabning 8- «B» sinfo'quvchilarimiz. Sinfimizni maktabda hamma taniydi. Eng a'lochi va tarbiyali o'quvchilar o'qishadi, desam xato qilamanu 99 foizi a'lochilar, desam ishonavering. «A'lochilar»dan Ilhom, Shuhrat,

BO'YINIZ O'SIB QOLDI...

Akmal va eng qiziqchi bola G'ulomlarning katta-katta suratlari «A'lochilar doskasi»dan o'rin olgan. Qizlarimiz ham bo'sh kelishmaydi. Odadta qizlarning bo'yi o'g'il bolalarga nisbatan pastroq bo'lishi kerak, deyishadi. Biz esa bu fikrga qarshimiz. Shuning uchun ham bo'y o'stiradigan doridan ichib, hammamiz o'g'il bolalardan uz-zu-n-n-roq bo'lib olganimiz. Bo'y o'stirishni xohlovchilar bo'lsa marhamat, sinfimizga keling, bepul dori ichib olasiz. To'g'ri, sinfimizda «naynov» yo'g'e, bo'yi baland bolalar ham yo'q emas. Tosh ko'tarish bo'yicha champion bo'lgan Zafar ismli polvonimiz ham bor. Xullas, sinfimizda oriq ham, semiz ham, naynov ham, pakana ham topiladi. Ularning har biri haqida gapiradigan bo'lsam, eh-he, qulqlaringiz og'rib ketadi. Shuning uchun ham ajoyib sinfimiz haqidagi hikoyamni shu yerda to'xtatishga qaror qildim.

Salom bilan dori ichib, uzun bo'lib olgan
qizlardan biri Go'zalxon QOSIMJONOVA.

Qoraqalpog'istonning To'rtko'l shahriga borib, To'xtajon ayani yo'qlasangiz, ko'p izlab ovora bo'l maysiz. Chunki onaxonni shaharning kattayu kichigi juda yaxshi taniydi. Bu bejiz emas albatta. Uzoq yillar mobaynida ko'plab mas'ul lavozimlarda ishlab kelgan To'xtajon ayaning

MEHNAZATNING shahar istiqboliga qo'shgan hissalarini sanayversak, adog'iga yetib bo'l maydi. Suronli urush yillarida front ortida jonbozlik ko'rsatib, g'alabaga o'z ulushini qo'shgan bo'lsa, madaniyat uyiga rahbarlik qilib; shahardagi ko'plab iste'dodli yoshlarni «kashf etgan».

Kichkintoylarni jordan sevgani bois bir necha yil bolalar bog'chasiga mudiralik qilgan onaxon tarbiyalagan o'g'il-qizlar endilikda komil insonlar bo'lib, yurtimiz

koriga
yarayaptilar.

To'xtajon aya Ollaberganova hozirda qarilik gashtini surib, farzandlari, nabiralar ardog'ida o'tiribdi. «Qarisi bor uyning parisi bor» deganlaridek, onaxon bosh bo'lgan bu xonadonda tinchlik, xotirjamlik, hamjihatlik hukmron.



Farzandlarining unga ko'rsatayotgan e'zozi, nabiralarining mehridan boshi ko'klarda. Har tong qo'llarini duoga ochib, muhandislik kasbini ardoqlab kelayotgan o'g'li Shuhratjonni, muallima kelini Zulfiyaxonni, shirindan-shakar nabiralarini xizmatga, maktabga, bog'chaga kuzatar ekan, «O'zbekistonimizning tinchligiga ko'z tegmasin, iloyo. Yurtimiz tinchki, farzandlarim bemalol o'qib, ishlab yurishibdi-da», deya shivirlab qo'yadi ohista.

Nargiza AKBAR qizi.


TARIXNI BILMAY TURIB...

Buvim yashaydigan Akmal Ikromov tumanidagi «Fozil tepe» ko'chasida katta bir tepalik bor. Uning nomi ham «Fozil tepe» deb ataladi. Men ana shu tepalikka chiqib, tabiat manzarasini tomosha qilishni juda yaxshi ko'raman. Bu yer ayniqsa, bahor va yoz oylarida bolalar bilan gavjum bo'ladi. Tepalikning o'rtasida katta temir zinapoya bor. U yerga chiqsangiz, o'zingizni tog'larda yurgandek his qilasiz.

Lekin bu tepalikning tarixi bilan hecham qiziqib ko'rmanan ekanman.

«Tong yulduzi» gazetasi qoshidagi «Istiqlol umidlari» to'garagiga a'zo bo'lib, voqe-a-hodisalarga, ko'hna yodgorliklarning tarixini bilishga qiziqadigan bo'lib qolganim bois, tepalik haqida ham oz bo'lsa-da, ma'lumot to'pladim. Bilganlarimni sizga ham hikoya qilib bermoqchiman: XVIII asr oxirlari, XIX asr boschlarda shahrimizda bu kabi tepaliklar juda ko'p bo'lgan ekan. Bu tepalik ham o'shalardan biri bo'lib, unda harbiy qorovullar shahar,

qishloqlarni nazorat qilib turar ekanlar. Agar biror xatar bo'lsa, shu



tepalikdan turib gulxan yoqib, boshqa tepaliklarga xabar qilinarkan. Harbiy otlar ham o'sha tepalikda boqilar ekan. Bundan 20 yil muqaddam qadimshunoslar tepalikning yonatroflarini qazishganda, ko'plab sopol idish qoldiqlari chiqqan ekan.

Nazarimda, bu tepalik bizga otabobolarimiz hayoti haqida so'zlayotgandek bo'laveradi.

**Shahzoda RIZAYEVA,
«Orom» nomli bog'cha-maktab
o'quvchisi.**

QANCHALAR KO'P EDI ORZULARINGIZ...

Maqtanishga yo'ymangu maktabimiz nafaqat viloyatda, balki Respublikada ham o'z mavqeiga ega. Bunga sabab, maktab o'quvchilari bilimda, tartib-intizomda hamisha birinchi bo'lishga intilishi bo'lsa kerak. Maktabimiz o'quvchilari har bir tadbirlarda faol qatnashadilar.

Biz o'quvchilarning doimo olg'a intilishimizda, jonkuyar domlamiz Bahodir aka To'xtayevning xizmatlari katta bo'lgan. Domlamiz haqida qancha yaxshi so'zlar aytsak arziydi. To'g'ri, ular bizning noo'rin ishlarimizni sezsalar, qattiq koyirdilar. Xatoimizni tuzatardilar. Kerak bo'lsa, yordam berardilar.

Domlamiz maktabni, biz o'quvchilarni juda yaxshi ko'rardilar. Bu esa ularning so'zlaridan, harakatlaridan shundoqqina bilinib turardi. Eh, qanchalar ko'p edi ya orzulari. Ming afsuslar bo'lsinki, shunday mo'tabar, aziz ustoz bizni tashlab ketdilar...

Ammo ularning bizga bergen puxta bilimlari, shirin so'zları, kerakli nasihatlari hamisha biz bilan qoladi. Joyingiz jannatda bo'lsin, mehribon ustoz!

**Dilso'z QO'ZIYEVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon
tumanidagi 49- maktabning
9- «B» sinfa o'quvchisi.**



Yaqinda «O'qituvchilar va murabbiylar kuni» munosabati bilan ta'lim- tarbiya tizimida alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlardan bir guruhi yurtboshimiz tomonidan mukofotlandi.

Sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya

USTOZ MARHAMATI -
s o h a s i n i rivojlantirish, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish, yosh avlod qalbi va ongida zamonaviy dunyoqarash asoslarni, yuksak ma'naviy- axloqiy fazilatlarni shakllantirish, ularni yatanparvarlik, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashga salmoqli hissa qo'shgan hamda ko'p yillik samarali mehnati uchun bir qator yurtdoshlarimiz «O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi» unvoni bilan taqdirlandilar.

Ular orasida Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 241- maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi Habiba opa Alimova ham borlar.

Avvalo opani unvon bilan muborakbod etish, shuningdek, ular xizmat qiladigan muqaddas dargoh bilan yaqindan tanishish istagida maktab tomon yo'l oldim.

Meni iliq qarshi olgan maktab direktori Zulayxo opa Ashirboyeva maktab o'quvchilariyu o'qituvchilari haqida ko'p yaxshi gaplarni gapirib berdilar:

- Maktabimizning tashkil etilganiga o'ttiz yildan oshdi. Bu yillard davomida maktabdan faqat yaxshi insonlar yetishib chiqayapti.

Bugungi kunda maktabda 1480

nafar o'quvchilar ta'lim-tarbiya oladilar. Ularga o'z kasbining bilimdonlari - 74 nafar o'qituvchilar saboq beradilar.

O'quvchilarimiz fan olimpiadalarida, ko'rik-tanlovlardada, Respublika


Kimning ishi bo'lsa aqlga payvand, Taqdir yulduzidan nolimas harchand.

Abulqosim Firdavsiy.

tuman, shahar miqyosida bo'ladigan yarmarkada sotadilar. Undan tushgan mablag`ga o'zları uchun kerakli mahsulotlarni sotib olayaptilar.

Qizlar guruhi ham bo'sh kelmaydi. Ular milliy udumlarimizni davom ettirish maqsadida mehnat

miqyosida tadbirlarda faol ishtirok etadilar. 2001-2002 yilda 11-sinfni 41 nafar o'quvchi yakunladi. Ulardan 36 nafari Oliy o'quv yurti talabasi bo'lishdi.



«O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi» Habiba ALIMOVA o'quvchilar davrasida.

Maktabda o'quvchilarning bo'sh vaqtleri to'g'ri tashkillangan. Bir nechta to'garaklar faoliyat ko'rsatadi. Jumladan, mehnat ta'limi o'qituvchisi Gershovich Yuriy Borisovich tashkil etgan to'garak tahsinga loyiqidir. Maktabda to'rtta ustaxona bo'lib, unda o'quvchilar mahsulot ishlab chiqaradilar. O'z mahsulotlari, ya'ni, arra, bolta, tesha, xovoncha kabilarni

o'qituvchisi Guli Mahkamova rahbarligida kashtachilik, quroqchilik bilan shug'ullanadilar.

O'qituvchilarimizning deyarli barchasi izlanuvchan, o'z kasbining bilimdonlaridir. Ona tili o'qituvchisi Gulchehra Mirzamatova bir necha yil oldin shu maktabda yetakchilik qilgan. Hozirda eng faol o'qituvchilarimizdan hisoblanadi.



O'tgan yili «Respublika o'qituvchilar yig`ini vakili» bo'lgan.

Bundan

QUYOSHIDEK HAMMAGA TENG

tashqari, kimyo

fani o'qituvchilari -
Vasila Soliyeva,
Halima Hoshimova,
boshlang'ich sinf
o'qituvchilari - Nodira
Odilova, Shoira
Nazarova, O'g'iloy
Mirzahmudova
kabilarni har qancha
maqtasak arziydi.

Ular orasida
barchamizga bosh
bo'lib yurgan fidoyi
o'qituvchimiz - Habiba
opa Alimovani alohida
tilga olgim keladi. Opa
doimo o'z ishlariga
mas'uliyat bilan qarab kelganlar.
Qanday ish buyurilsa, uni a'lo
darajada bajaradilar. Hech qachon
darsga kech qolganlarini yoki erta
ishdan ketganlarini eslolmayman.

Har bir ota-ona o'z farzandini 1-
sinfga olib kelayotganida Habiba
opaning qo'liga topshirishga harakat
qiladilar. Biroq buning imkoniyoti yo'q.
Shunday bo'lsa-da, boshqa sinflarda
30-35 nafar o'quvchi bo'lsa, Habiba
opada 44 nafar o'quvchi o'qiyapti.

Maktab rahbarining ushbu iliq
gaplaridan so'ng, kamtarin ustoz
Habiba opa Alimovaning o'zlariga

yuqori

sinfga
kuzatdim. Ular
hamisha men xohlagan-dek insonlar
bo'lishga intilishdi. Bundan doimo

m u r o j a a t
qildim.

- Bu yil
pedagoglik
faoliyatimga
42 yil bo'ldi.
Manà shu yillar
d a v o m i d a
qanchadan-
q a n c h a
o'quvchilarni

cheksiz mehr-muhabbat berdim.

O'zimning yolg'iz qizim bor.
Mening quvonch va tashvishim
mana shu qizimu maktabim bo'lgan.
Bugungi kunda uch nafar nabiram
bor. Ular davrasida yanada baxtiyor
ekanligimni his qilaman.

*Ha, ustoz shunday mo'tabar
zotki, undan saboq olmagan
inson to'laqonli*



Ustozni o'quvchilar tabriklagani kelishdi.

f a x r l a -
naman.

Qancha
o'quvchi
berilsa,
barini o'z
sinfimga
q a b u l
q i l d i m .
O'quvchi
tanlamadim.
El farzandi,
m e n i n g
farzandim
deb ularga

*b o 'l o l m a y d i .
Ustozlarimizning marhamati
quyosh nuridek hammaga teng
yetib boradi. Undan bahramand
bo'lish uchun esa o'quvchida
xohish va intilish
bo'lsa bas. Shu
o'rinda Nosir
Xusravning ushbu
misralarini takror
va takror aytgim
keladi:*

*Ustoz suhatidan
sira qochmagil,
Ta'sirin o'tkazar
senga ham u til.*

**Feruza
ODILOVA.**



Bola va dunyo

BARCHA SHAROIT MUHAYYO, BIROQ...

Germaniyaning har beshinchini aholisi 18 gacha bo'lgan yoshlarni tashkil etadi. Yoshlar moliyaviy jihatdan yaxshigina ta'minlangan. Kundalik kerakli buyumlar: o'quv qurollari, kompyuter va turli o'yinlari bisyor. Ular uchun yaxshi sharoitlar yaratilgan. Misol uchun avvallari sayohatga faqatgina yoshi ulug'lar otlanardi. Bugun esa germaniyalik yoshlar bo'sh vaqtlarini o'z mamlakatlari va xorij bo'yab sayohatga

yechish, ziddiyatlarni bartaraf etish, haq-huquqlarni anglash, qiziqishlarni inobatga olish, demokratik jamiyat va davlat tuzumini tuzishda o'z fikrlarini bildirishga odatlanadi.

MINGLAB LOYIHALAR

Yoshlarga madaniy tarbiyani singdirish federal hukumat nazoratida bo'ladi. San'at, madaniyat bilan uzviy aloqada bo'lgan bolalar va o'smirlar uchun kutubxona, muzey, teatr,

OLMONTYALIK YOSHLAR

bag'ishlaydilar...

Yoshlarni o'ylantiradigan jiddiy muammolardan biri bu ishsizlikdir. Har bir o'smir kelajakda ish bilan ta'minlanishi uchun qiziqish va orzulari inobatga olingan holda jamiyatga kerakli va foydali mutaxassis bo'lishi kerak. Garchand ularga mustaqillik ko'proq berilgan bo'lsa-da, aksariyat germaniyalik yoshlar o'z kelajagini ota-onasining maslahati va ko'magida barpo etadi. Bu oilaning jamiyatdagi o'rni naqadar yuqori ekanligidan dalolatdir.


SIYOSIY TARBIYA

Germaniyalik yoshlar uyushishda, jipslashishda boshqa mamlakatlarga nisbatan ancha faol. Ular davlat uyushmasi va tashkiloti, nodavlat guruhlari tarkibiga kirib, siyosat, ijtimoiy hayot va madaniy aloqalarga oid yangicha fikr va qarashlarini o'rta ga tashlaydilar. Siyosiy ta'lim shunisi bilan ahamiyatliki, unda o'smirlar mustaqil fikrlari bilan siyosiy tugunlarni

kinoklub va musiqa maktablari bir qancha loyihalarni amalga oshiradi. «Madaniy tarbiya» deb

Aziz bolajlonlar, Gyote, Shiller kabi ulug' yozuvchi va shoirlarning, Betxoven, Bramsdek mashhur bastakorlarning, Gegel, Eynshteyn va boshqa olimu ulamolarning vatani qayerligini bilasizmi? Topdingiz, Germaniya. Bugungi sayohatimiz Germaniyaga bag'ishlanadi. Biz germaniyalik bolalarning hayotidan bir shingilini e'tiboringizga havola qilmoqchimiz.

nomlangan federal birlashma assotsiatsiya va 48 ta maxsus uyushmadan iborat bo'lib, tanlov, viktorina, ijodiy kecha,



«Elektron texnikaviy aloqa» mutaxassisligi bo'yicha dars ketyapti.

Germaniya Federativ Respublikasining poytaxti - Berlin.
Maydoni - 357000 kv.km.
Aholisi - 82020000 kishi.
O'zbekiston Respublikasi bilan GFR 1992 yilda diplomatik munosabatlarni o'rnatgan.

seminar, konferensiya kabi 100000 oyihani 12 mln. yoshlar ishtirokida amalga oshiradi.

TA'LIM-TARBIYA

Manbaadagi ma'lumotga ko'ra 1996 yil Germaniyada 52418 ta maktab ro'yxatga olingan bo'lib, unda 12,6 mln. o'quvchilar tahsil oladi. Ularga 779800 nafar muallimlar saboq beradi. Asosiy

Qonun fuqaroga xohishi va istagi bo'yicha, qiziqishlarini hisobga olgan holda maktabni, o'quv yurtini va kasbni tanlash huquqiga ega. Siyosatning ta'lim sohasidagi vazifasi yoshlarni qo'llab-quvvatlash va sharoit yaratib berishdir. Har bir fuqaro umumiylashtirish, kasbiy va siyosiy ta'lim olishi shart. Siyosatning maqsadi yoshlarni demokratik davlat uchun javobgar bo'la oladigan mustaqil shaxs qilib tarbiyalashdir. Sanoat davlati bo'lmish Germaniya, xom ashyoni qayta ishlashda asqotadigan mukammal mutaxassislarga suyanadi. Shuning uchun ham ta'limga katta mablag' ajratadi.

Majburiy ta'lim 6-18 yoshli bolalar uchun 12 yilga mo'ljallangan. Ta'lim barcha davlat maktablarida bepul. Darsliklar o'quvchilarga qaytarish sharti bilan davlat tomonidan bepul beriladi. Ota-onanining daromadiga qarab, darsliklarning bir necha foizi pullik bo'lishi ham mumkin.

Germaniyada xususiy maktablar ham mavjudki, u davlat standartlariga, talablariga to'la javob

bera olishi kerak. Xususiy maktablarda tahsil oladigan o'quvchilar soni 1996/97 o'quv yilida 645000 nafarni tashkil etgan. Germaniyadagi jami umumiyy ta'limga kasbga yo'naltirilgan maktablar 3645 tani tashkil etadi. Foiz bo'yicha qaraydigan bo'lsak, germaniyalik

xavfsizligi o'rnatilgan ish joyida o'quvchi ko'proq malakaga ega bo'ladi.

Kasb ta'limi bo'yicha iqtisod tarmoqlari, davlat xizmatlarining 500000 korxonalar shug'ullanadi. Bugungi kunda 1,6 mln.

Shumaxer ham barchaga ma'lum.

BO'SH VAQT - XUSH VAQT

QANDAY YASHAYDILAR?



Roliklarda uchmoqlik - germaniyalik yoshlarning sevimli mashg'uloti.

yoshlarning 43,6 foizi xususiy gimnaziyalarda, 13 foizi davlat maktablarida (valdorf maktablari), 10 foizi aqlan zaiflarga mo'ljallangan maxsus maktablarda ta'limga oladi.

KASBGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM

Aksariyat germaniyalik yoshlar (70 %) maktabni tamomlagandan keyin davlat tomonidan rasman e'tirof etilgan kasbga yo'naltirilgan maktablarda tahsil oladi. Ta'limga 2,3,5 yil davom etib, o'quvchilar mablag' bilan rag'batlantirilib turiladi. Bunday ta'limga ahamiyatli tomoni shundaki, dars maktabda emas, ishlab chiqaradigan korxonalarda olib boriladi. O'quvchi hafta mobaynida 3-4 kun korxonada ish o'rganib, tajriba oshirsa, 1-2 kun maktabda ta'limga oladi. Zamonaviy texnika bilan ta'minlangan, texnika

yoshlar 360 ta talabgor va kerakli mutaxassislik bo'yicha tahsil olmoqda. Yigitlar avtomexanika, elektr p a y v a n d c h i , chilangarlikka o'qisa, qizlar ish xizmatchisi, shifokor yordamchisi, savdo sotuvchisi va boshqa kasblarga tayyorgarlik ko'rishadi.

Yoshlar bu bilangina chegaralanib qolmay, o'qishni Oliy o'quv yurtlarida davom ettiradilar.

SPORT

Sport Germaniyada eng mashhur m a s h g ' u l o t .


Germaniyaliklar sport bilan yuqori natijalarga erishish uchun shug'ullanmaydilar, aksincha ko'proq do'stlar davrasida bo'lishni, sog'likni mustahkamlashni afzal ko'rardilar. Sportning barcha turlari - futbol, volleyball, basketbol, tennis, stol tennisi, golf, muz ustida xokkey, gimnastika, yengil atletika, suv sport turlari va boshqa uyushmalar nafaqat sog'lolmlar uchun, balki nogironlar, qariyalar, homiladorlar, yosh bolali onalar uchun ham xizmat qiladi. Millionlab sport ishqibozlari ommaviy yugurishda, velosiped, chang'i poygasida ishtiroy etadi.

Jahon miqyosida ham Germaniya yuqori ko'rsatkichlarga ega. Futbol bo'yicha uch marotaba jahon championi bo'lgan Germaniya terma jamoasi bu yilgi Jahon championatida ham ikkinchi o'ringa sazovor bo'ldi. «Formula -1» avtopoygasining ikki karra jahon championi Mixael

bir kunda o'rtacha 3-4 soat, dam olish kunlari 10 soat bo'sh vaqtga ega. Mehnat ta'tili esa 6 haftadan iborat. Ba'zilar bo'sh vaqtini ijodga, biror narsa yig'ishga ajratsa, ba'zilar televizor ko'rish, musiqa eshitishni xush ko'radi. Albatta bunday vaqtarda xotirjam uyda - o'z xonalarida bo'lishga nima yetsin. Biroq, germaniyaliklar vaqtiga bilan tabiat qo'yniga ham otlanadilar. Sport bilan shug'ullanadilar, sayohat qiladilar yoki bog'da ishlaydilar.

«Hordiq sanoati» Germaniyada yaxshigina rivojlangan. U xilma-xil xizmatlarni tavsiya etadi. Hayotning eng muhim omilidan biri bo'lmish - hordiq ilmiy izlanishlarga ham sabab bo'imoqda. Yaxshi dam olgan inson, mehnatni ham yaxshi qiladi. Shuning uchun ham ta'tilni, dam olish kunlarini mazmunli o'tkazish uchun «Bo'sh vaqtini unumli o'tkazish» jamiyati ko'p ishlarni amalga oshirmoqda.

*Muharrama PIRMATOVA.
(«Германия и факты» kitobi asosida tayyorlandi.)*



«Formula -1» avtopoygasining ikki karra jahon championi Mixael Shumaxer.

Mehmonxona

Poytaxtimizning Sobir Rahimov tuman hokimiyatiga qarashli «Oymomo» istirohat bog'i «1 oktabr - O'qituvchilar va murabbiylar bayrami» bahona o'zgacha tarovat va fayzga to'ldi. Ustozlarga qarata aytilgan dil izhorlari, ta'rifu tashbehlari, tahsinu tavsiflar yig'ilganlar qalb torlarini

ORZULARI BISYOR "ORZU" GURUH

chertgan bo'lsa ajab emas. Hammasidan ham barchani ba'zan yig'latgan, ba'zan o'ylantirgan, ba'zan esa o'yinga chorlagan yangi «Orzu» guruhi diqqatimni o'ziga tortdi. Konsert dasturining rang-barangligi, qo'shiqlar matnidagi teran fikr, xolis xulosalar sabab bu nishona guruhni yangidan kashf etdim.

Tanishing: guruh rahbari - Sunnatilla Jumaboyev, xonandalar - Shavkatbek Odilbekov va Adhamjon Kalonov.

-Guruhimiz Hamza tuman hokimiysi va «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining Hamza tuman bo'limi ko'magida tashkil topgan. Biz asosan «Jaz» va «Milliy mumtoz» yo'nalihsida kuylaymiz, deb suhabatni boshlashdi guruh a'zolari, - tartibli reja asosida ish olib boramiz. Uzoqni ko'zlab maqsad sari intilamiz. Orzularimiz ushalsin, niyatlarimiz ro'yobga oshsin deb guruhimizni «Orzu» deb nomladik.

-Yo'llari mashaqqatli, noni qattiq san'at sarhadiga yetaklagan insonlar - ustozlar haqida to'xtalsangiz.

Adhamjon Kalonov:

-Namangan viloyati, Chust tumani, Olmos qishlog'ilik ustozim



olamiz. Hozirgi faoliyatimizga yaqindan yordamlashayotgan ustozimiz Vahobjon aka Ohunov bo'ladilar.

-Ijodiy jarayon qanday kechadi?

-Ko'z tegmasinu juda ahillikda ish olib boramiz. O'zaro kelishib, to'g'ri fikrni qo'llab-quvvatlaymiz. Fe'l-atvorimiz ham o'xshash. Quvnoqmiz, «pov» etib yonamizu «pov» etib o'chamiz.

-Sport bilan ham shug'ullanib turasizlarmi?

-Yengil atletika, futbol, kurash, taekvondo bilan shug'ullanamiz.

-Qaysi san'atkorlarga havas qilasiz?

-Ravshan Komilov, G'iyos Boytoyev, Anvar G'aniyev va Otabek Madrahimov kabi mashhur xonandalar qo'shiqlarini sevib tinglaymiz.

-Sahnaga endigina tetapoya bilan kirib kelganlarning ba'zilari o'zlarini «yulduz» deb hisoblaydi. Siz qanday o'ylaysiz?

-Shunday vaziyatlar bo'ladiki, birgina qo'shig'ingiz «shlyager» bo'lib, shov-shuvga olib keladi. Shu birgina qo'shiq tufayli zudlik bilan tanilib, mashhur bo'lish mumkin. Biroq bu «yulduz» degani emas. «Yulduz» bo'lish uchun bunday «shlyager»larni yuzlab yaratish darkor.

-Iste'dodli insonlarni «g'alatiroq» deyishadi?

-Bilasizmi, inson dunyoga kelganda uning miyasida millionlab hujayralar bo'ladi. Yoshligidan qaysi yo'nalihsiga ko'proq e'tibor berilsa, ana shu sohaga tegishli hujayralar rivojlanib, aksinchasi qurib ketaveradi. Aytaylik, murg'ak

bola chizishga, musiqaga, hisob-kitobga, ixtiroga va h.k.ga ishtiyoqmand. Aynan bola qiziqayotgan soha borgan sari kengayib, ch u q u r l a s h i b boraveradi. Yuzlab s a v o l l a r tug'ilaveradi. M u r g ' a k izlanaveradi. Uni qiziqtirmaydigan soha hujayrasi esa so'naveradi. Bora-bora ulg'aygan iste'dod egasi o'z kasbining mohir ustasi bo'ladi. Ba'zan bunday insonlarni «fanat» deyishadi. Bir tomondan bu to'g'riga o'xshaydi. «Har sohadan bir shingil» bo'lgandan ko'ra «Haqiqiy iste'dod» bo'lgan ming afzal. Vatan ravnaqiga ham munosib hissasi qo'shiladi.

-Bolalar va o'smirlar orasida san'atkor bo'lishni istovchilar ko'p. Ularga qanday tilaklarining bor?

-Avvalo musiqiy bilimga ega bo'lmoq darkor. Notani yaxshi bilgan insongina «falsh»siz kuy-qo'shiq yarata oladi. Bunday kuy-qo'shiqlarning umri uzoq bo'ladi. Biz bolalarga sog'lik, puxta bilim va omad tilaymiz. O'z orzulari yo'llarida olg'a borishsin.

-Maroqli suhabatingiz uchun tashakkur.

Hilola

ABDURAZZOQ QVA

Sog` yurak - tog` yurak

Sport sog`ligimiz garovi ekanligini hammamiz yaxshi bilamiz. Shunday bo`lsa-da, sport bilan shug`ullanishga har doim ham vaqt topavermaymiz. Mening akam esa aksincha, sport bilan shug`ullanishga albatta vaqt topadilar. Mana to`rt yildirki, sportning

Hakimov, Abdumutal To`xtayev hamda yana bir qator shogirdlari Respublika o`yinlari g`olibidirlar.

Yaqinda ular tog` yon b a g ` r i g a s a y o h a t uyuushtirishdi.

S a y o h a t mobaynida sport

mashg`ulotlari bilan muntazam shug`ullanib, yaqinda bo`lib o`tishi rejalashtirilgan «Dinamo birinchiligi»ga tayyorgarlik ko`rib qaytishdi.

Men Adham aka boshchilik qilayotgan bu jamoaga, xususan, akam Abdumutal To`xtayevga barcha musobaqalarda faqat omad tilab qolaman.

**Malohat TO`XTAYEVA,
Toshkent shahar, Akmal
Ikromov tumanidagi**

**116 - maktabning
3- «B» sinf o`quvchisi.**

SIZGA

«Muatay» turi

OMAD**TILAYMAN**

musobaqalarda qatnashib, yuqori o`rnlarni egallab kelishmoqda. Baxtiyor Ahmedov jahon championi, Sherzod G`ofurov, Zohid



Akam Ravshan Ahmadxo`jayev shaxmat o`yinlari bilimdoni, sport ustasiligiga nomzodlar. O`zlari bilibgina qolmay, ko`plab shaxmat ishqibozlariga ham ustozlik qilib, aql


sanalmish shaxmat o`yinini o`rgatib kelyaptilar. 15 - sport maktabi zahirasidagi va Mirzo

SPORTGA

gimnastikasi

Ulug`bek tumani Qo`sishma ta`lim maktabidagi shogirdlarini toifali shaxmatchi bo`lishiga tayyorlaydilar. Akamni ish jarayonida juda k o p kuzatganman: har bir bolaga alohida e`tibor b i l a n tushuntiradilar, t u r l i musobaqalarga, turnirlarga olib

boradilar.



Iqtisodiyot

Universitetida tahsil olayotgan akam bir necha tillarni mukammal biladilar. Bu esa chet ellardagi musobaqalarga borganlarida albatta asqotadi. Men shunday akam borligidan faxrlanaman va ularga o`xshashga intilaman.

Fursatdan foydalani, yaqinda bo`ladigan tavallud kunlari bilan chin dildan tabriklayman. Qilayotgan xayrli ishlariga muvaffaqiyatlar tilayman.

Umida

**AHMADXO`JAYEVA,
Mirzo Ulug`bek tumanidagi
18 - maktabning 7- «D» sinf
o`quvchisi.**

ABADIYAT ARDOOLAGAN ALLOMALAR

Ushbu ruknni Rustam OBID olib boradi

U barcha suratlarida bir xil qiyofada: oq va jingalak yasama sochli semizgina chol. Ochiqko'ngil va quvnoq. O'zidan bir qadar mamnun. Ko'zlar kichik, ammo nigohi o'tkir. Bu -

Bilimim shu yerga yetib keldikim,
Bilimsizligimni endi tushundim.

Abu Shukur Balxiy

Skandinaviya dahosi Karl Linney.

Olimni yaxshi bilgan kishilarning aytishicha, kuchquvvatga to'la paytlari u serg'ayratligi, jo'shqinligi bilan hammani hayratga solar ekan. Ertalab soat 4 da uyqudan tursa, 10 da ma'ruzalarini o'qib tugatardi. Tog'u toshlarga sayr qilar, qoyalarga tirmashar edi. Oqshomlari esa trubkasini tutatgancha talabalarining raqs tushishini tomosha qilishni yoqtirar, zavqi kelib qolsa, biron sho'x musiqaga o'zi ham o'rtaga chiqib ketardi. Quvnoq davralarni yaxshi ko'rар, qachon qaramang, bitta yangi latifa aytib berardi.

Uni xasis deyishardi, ammo u ko'proq tejamkor bo'lgan: pul qo'liga ancha kech va mashaqqat bilan kelgani uchun qadrini bilardi. Kamchiliklari orasida eng birinchisi kibr bo'lgan, e'tiroz bildirishlariga toqat qilolmas, o'zining fikriga zid mulohazani arang eshitardi. Ko'p maqtanar, boshqalar uni maqtashi xush yoqardi. «Uning shon-shuhratga intilishi cheksiz edi», deb yozishgani to'g'ri. O'zini-o'zi buyuk deb ochiqchasiga aytardi. Bu g'alati ko'rindi, albatta, ammo lekin... qaysi tomondan qaramang, to'g'ri gap-da baribir.

Yana aytishlaricha, Linney familiyasi

shvedcha «linden», ya'ni «zarang» so'zidan kelib chiqqan. Ya'ni, botanik bo'lish uning peshonasiga yozilgan emish. Uning butun bolaligi otasi ruhoni yig'igan mo'jazgina Rosxult shaharchasi bog'larida o'tadi. Buyuk kishilarning bolaligi haqida gap ketganda qanday bo'lmasin biron ilohiy alomat «topish» odat

murabbiylarning ko'plab nomlari uchraydi. Doktor Rodman Karlga fiziologiya va tibbiyotdan dars beradi. Upsala universitetida botanikani o'qituvchi

Buyuk kishilar olmos yanglig' noyob va shu qadar serjilodir.

Sharq naqli

BOTANIKLAR QIROQ

professor Rudbek esa hali talaba yigitni o'ziga assistent qilib oladi. Ilmiy jamiyat uni Laplandiya bo'ylab savyohatga yo'llaydi. Unga Leydenlik mashhur hakim Burgav homiylik qilaadi. Botanikaga oshiq bo'lgan yana bir badavlat homiy Klifford esa yosh



tusiga kirib qolgan o'zi. Linney misolida ham shunday deyishadi: qo'liga gul berilgan zahoti go'dak yig'idan to'xtab qolarkan.

Aslida shunday bo'lganmi, yo'qmi - noma'lum. Lekin Karl shu qadar yomon o'qirdiki, o'qituvchilar uning ota-onasiga bolaga ilm-fanni o'qitib qiyamanglar, undan ko'ra biror hunar o'rgatganingiz durust bo'larmidi, deb shama qilishga ham yetib borishgan. O'smirni botanikadan boshqa hech qanday fan qiziqtirmsasi. Nafsilamrini aytganda, o'sha kezları botanika degan fanning o'zi yo'q edi hali, bu atamani o'simliklarga oid bilimlar ma'nosida shartli ravishda qo'llayapmiz, xolos. Binobarin, butun boshli yangi fanni yaratayotgan o'smirning iste'dodini baholash mushkul edi. Balki hozirgi kunda ham maktabdayu uyda «ikkichi» sifatida barchadan dashnom eshitayotgan qay bir o'quvchi hali hech kim bilmaydigan yangi bir fan sohasiga asos solayotgandir.

Omad siz talabaning qobiliyatlariga ishongan doktor Rodman uchrab qolmaganida Karlning kelgusi taqdiri qanday kechishi noma'lum edi. Umuman, Linney omadli ekan. Homiy larning yordami ayniqsa yoshlikda, eng kerak paytda juda asqotdi. Olimning barcha biografiyalarida va «O'zim haqimda o'zim yozgan xotiralar»da do'stlar, homiyalar,

tadqiqotchini mehr-muruvvatga ko'mib yuboradi, asarlarini nashr ettiradi, Angliyaga safari uchun mablag' ajratadi.

To'g'ri, bularning bari «omadli» Linneyning yo'li gullarga burkanganini anglatmaydi. Yo'q, u taqdirning erkatoyi emas hali. Rudbekning yosh tadqiqotchiga ko'rsatgan marhamati butun universitetning hasadini keltiradi. Leydenga - Burgav bilan Kliffordning huzuriga Karlni niyoyat ko'ngilsiz bir hol boshlab kelgandi: Kalun degan joyda doktor Mor: -Qizimni berishim uchun sen niyoyatda qashshoq va hech kim bilmaydigan odamsan, deb yigitning shundoqqina yuziga aytdi. Ana shunda Linney shon-shuhrat izlab Gollandiyaga keldi... va juda tez orada katta obro' qozondi. Karl Linneyning yoshligida ko'nglini cho'ktirgan va butun umri davomida mol-davlatga va shon-shuhratga intilishiga sabab bo'lgan omil ham shu emasmikan aslida?!

(Davomi bor).

Oardoshlar ijodidan

Qadrlı bolalar! Bundan bir oygina oldin biz jonajon yurtimizning eng aziz, eng ulug' bayrami - Mustaqilligimizning 11 yilligini katta tantanalar, shodiyonalar bilan nishonladik. Hamma mamlakatlar ham o'z Mustaqillik kunini shunday nishonlaydilar va bir-birlarini tabriklaydilar, bir-birlarining quvonchlariga sherik bo'ladilar. Bu oyda yon qo'shnimiz - kelib chiqishi bir, tarixi bir, necha-necha ming yillar davomida birga yashab, birga kurashib kelgan turkman xalqi ham o'z mustaqillik bayramining 11 yilligini nishonlamoqda. Hamma xalqlarning orzu-quvonchlari bir-biriga o'xshaydi.

Saparmurot TURKMANBOSHI URUSH BO'L MAGAN BO'L SA

Onam yig'lamasdi gilam to'qirkan,
Yo uchburchak xatni olib o'qirkan,
Ehtimol, yig'lasa yig'lardi ba'zan
Agar g'anim urush bo'l magan bo'lsa.
Birga yashab, uyda yangrardi kulki,
Butun saqlanardi oila mulki,
Bizni ko'tarardi otamiz ilki,
Agar g'anim urush bo'l magan bo'lsa.
Birga turib, birga yotardik tunda,
Uyda o'tirardik hammamiz shunda,
Otam da vat xati olmasdi unda,
Agar g'anim urush bo'l magan bo'lsa.
Urushni boshlaydi to'rt urushqoq,
Odamlar qo'liga tutqazar yaroq...
Balki, tebramasdi Yerimiz u choq,
Agar zolim urush bo'l magan bo'lsa.

Tagangul TAGANOVA

Bu she'r Tejen-Saraxs-Mashhad xalqaro temir yo'lining ochilishiga bag'ishlanadi

Yalqadi bizni Olloh,
Ochiq yo'llar, ajab yo'llar.
Bizni tanidi dunyo,
Ochiq yo'llar, ajab yo'llar.
Turkmanning baxmal yo'li,
Qilni qirq yorar tili,
Baxtini qurar eli,
Ochiq yo'llar, ajab yo'llar.
Qardosh der Eron bizga,
Yaqinlar hayron bizga,
Yer ahli sayron bizga,
Ochiq yo'llar, ajab yo'llar.
Sog' tursin umr taxti,
Uyg'ondi turkman baxti,
Keltirdi ajab vaqtini,
Ochiq yo'llar, ajab yo'llar.



Turkman xalqi ham biz singari qaramlik davridan qutulib, qaramsizlikka yetib kelganlaridan baxtlidirlar, ular ham biz singari tinchlik-barqarorlikni qadrlaydilar, urush va notinchlik odamzodga judolik keltiruvchi qanday ofat ekanligini chuqur his qiladilar, shuning uchun ham ijodkorlar o'z she'rlarida bugungi baxtiyor kunlarini, ona vatanlarini, istiqlolning mevalarini tarannum etmoqdalar. Istiqlol uchun olishib o'tganlarni biz kabi yodlamoqdalar. Bugun biz ana shunday she'rlardan ayrimlarini e'tiboringizga havola qilayotirmiz.

KELMASMI?

Urush battarmi, yer battar,
Biri-biridan xatar,
Hasrati olam tutar,
Ketgan qaytib kelmasmi?
Umid bormi o'lgandan,
Ne naf hayron qolgandan,
Devor bosgan onamdan
Endi darak kelmasmi?
El-yurt uchun jang degan,
Bir jonusi bir tan degan,
«Qaytaman-ku man» degan,
Otam qaytib kelmasmi?
Og'am, inim bor edi,
Ikkovi ham zo'r edi,
Ularga zorman endi,
Ular qaytib kelmasmi?
Kattasi Niyozmurot,
Mittisi Muhammadmurot,
Ikkovi ham bemurod
Ketdi. Qaytib kelmasmi?



Bashim OG'AYEV

LOCHINIM

Buyuk Vatanimning orzusi bo'lib,
Go'zal Ashxobodni quchgan Lochinim.
Qaramsiz, betaraf qanotin kerib,
Ka'ba taraf hajga uchgan Lochinim.
Sen bir halollikning moyasi bo'lib,
Oq moya sutini ichgan Lochinim.
Sardorimni qanotiga mindirib,
Ekvatordan uchib kelgan Lochinim.
Turkmanlarning ochilmagan eshigin,
Yerning to'rt tarafin ochgan Lochinim.
Yaratib do'stlikning sinmas ko'prigin,
Qadim Ipak Yo'lin kechgan Lochinim.
Quyosh bo'lib sendan ko'ngillar ilib,
Bizga tilla shu'la sochgan Lochinim.
Tinchlik-barqarorlik nishoni bo'lib,
Sardorim g'oyasin yoygan Lochinim.


Turkmanchadan Miraziz A'ZAM tarjimasi.

Bizning to'garak

SHE'RLARIM

She'rlarim rangi,
Balki ko'rinnmas.
Sirin bilishga,
Hech kim urinmas.
O'zim aytaman,
Barchasin sirin.
She'rlar qa'rida
Dardim yashirin.
Tinchlik bermas hech,
Qalbim yaralar.
She'rim tubidan,
«Oh»lar taralar.
Qalbim tubiga,
Go'yo cho'kaman.
She'rlarim yozib,
Ko'z yosh to'kaman.


*Madina RAHIMOVA,
Toshkent viloyati, Chirchiq
shahridagi
26 - matabning 8- «A»
sinfo o'quvchisi.*



G'ANIMAT

Hayot, sen gulshanda ajib bir bog'san,
Kimki yashab o'tar, o'chmas siyog'i.
Kimdир pirpiragan shamlarga o'xshar,
Baribir g'animat hayot chirog'i.
Bu mangu dunyoda, omonat odam,
Biri kam dunyoning tubi ko'rinnmas.
Hech kim bu dunyoga ustun bo'lolmas,
Odam g'animatdir, u qayta kelmas.
Sen e'zoz qilgan ul ota-onang ham,
Sen uchun qurilgan qasr-xonang ham,
Bag'ringda ulg'aytgan murg'ak bolang ham,
Bu dunyoga mehmon, bari g'animat.

*Hafiza ASLONOVA,
Samarkand viloyati,
Oqdaryo tumanidagi 30 - o'rt
matab o'quvchisi.*



GILOSIM

Gilosim, gilosginam,
Qorinchamga mosginam.
Bo'liqqina bo'yi, eni,
To'yib-to'yib yesam seni.

*Sardor YO'LDOSHEV,
Toshkentdagi 46 - o'rt
matabning 4- «V» sinf
o'quvchisi.*



VATAN

Sevgi tuyg'usidan yaralgan Vatan,
Bulbullar xonishi taralgan Vatan.
Jannatdek beqiyos tarovati bor,
Mehr ko'zlarida qaralgan Vatan.
Ishonchingni oqlar o'g'lonlaring ko'p,
Yovlarni yo'latmas posbonlaring ko'p.
Dunyoda shoningni ko'kka ko'targan,
Alpomish avlod - polvonlaring ko'p.
Sevaman har qarich tuprog'ingni men,
Chinor bo'l, e'zozlay yaprog'ingni men.
Porloq kelajaging qalban his etib,
Chin dildan o'parman bayrog'ingni men.

*Rustam O'TAMUROD,
Alisher Navoiy nomli Nafis san'at
litseyi o'quvchisi.*

OQ KAPTAR

Oq kaptarim, oq kaptar,
Qanotlaring qoq kaptar.
Samo uzra erkin uch,
To'p-to'p bulutlarni quch.
Do'stlarimga beray xat,
Sen ularga berib qayt.
Eltgin do'stlik salomin,
Kuyla tinchlikning nomin.
Oq kaptarim, oq kaptar,
Qanotlaring qoq kaptar.

*Odina SALOMOVA,
Samarqand viloyati, Narpay
tumanidagi
43 - o'rt maktabning
5 - «A» sinf o'quvchisi.*



KUZNING AJOYIB KUYI


Oltin kuzning shamoli,
Asta-sekin yeladi.
Polizlardan yoqimli,
Ajib bir hid keladi.
Uzum, behi, taruzlar,
Oltin kuzning mevasi.
Oltin rangli yaproqlar,
So'zlar kuzning shevasin.
Tark etar o'lkamizni,
Chug'ur-chug'ur qushchalar.
Oltin kuz o'z sozini,
Sozlab, ajib kuy chalar.

*Qizlarxon YO'LDOSHEVA,
Poytaxtimizdagi
214 - maktabning 6 - «V» sinf
o'quvchisi*

O'ZBEKELIM YASHNAYSAN

O'lkam, juda go'zalsan,
Qandu shakar, asalsan.
Mehribonsan, onamsan,
O'zbek elim yashnaysan!
Olam ichra yagona,
Ko'hna, qadim durdona,
Farzandlaring mardona,
O'zbek elim, yashnaysan!
Omad senga yor bo'lisin,
Tinchligimiz bor bo'lisin,
Ko'ksing doim tog' bo'lisin,
O'zbek elim, yashnaysan!
Polvonlaring soni ko'p,
Oltinlaring koni ko'p,
Farzandlaring shoni ko'p,
O'zbek elim, yashnaysan!

*Shahnoza YO'LDOSHEVA,
Toshkent shahar, Sirg'ali
tumanidagi 32 - maktabning
9 - sinf o'quvchisi.*



SHO'NG'DB KOETDI

Dadasi o'g'liga:

-O'g'lim, akang mehnatga sho'ng'ib ketdi. Sen ham qarashib yuborsang bo'lmaydimi?-dedi.
-Qarashishga qarashaveraman, lekin suv yo'q-ku...



SHUNI HAM BILMAYSIZMI?

- «Yuridik shaxs» va «jismoniy shaxs» deb kimlarni aytamiz? - so'radi dadasi Nargizadan.

-Huquq oliygohida tahsil olayotgan talabalarni «yuridik shaxs», jismoniy tarbiya oliygohi talabalarini esa «jismoniy shaxs» deb ataymiz. Shuni ham bilmaysizmi? - javob berdi Nargiza hozirjavoblik bilan.

U'KAM G'IRT AHMOQ-DA...

-Ukam g'irt ahmoq-da,-dedi Abbos o'rtog'iga.

-Nimaga?

-Doim yig'laganida og'ziga so'rg'ich tutishadi. U esa ko'nib qo'ya qoladi. Men yig'lasam yo shokolad yo konfet so'rayman...

*Dilshod G'OFUROV,
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi
169 - muktabning 7- «A» sinf o'quvchisi.*

Bir podsho ovga chiqibdi. Qarchig'ayini quyonning ketidan yuborib, o'zi orqasidan boribdi. Qarchig'ay o'ljasiga bir zumda yetib olibdi. Podsho ancha paytgacha ov qilib, tashnalikdan suv izlay boshlabdi. Bir tog'ning yonidan tomchilab suv oqib turgan ekan. Podsho xurjunidan piyolasini olib, suvga tutibdi. Piyola to'lgandan keyin ichay deb og'ziga olib boribdi. Shu payt qarchig'ay birdan qanot qoqib, suvni to'kib yuboribdi. Podsho piyolasini yana tutibdi. To'lishini sabrsizlik bilan kutib, endi ichay deganda qarchig'ay yana qanoti bilan suvni to'kib yuboribdi. Podsho uchinchi marotaba piyolasini to'ldirib, labiga yaqinlashtirgan ekan, qarchig'ay bu safar ham piyolani to'ntarib yuboribdi. Podsho



PODSHO BILAN QARCHIG'AY

achchiqlanib, qarchig'ayni toshga urib o'ldiribdi. Shu payt «ko'proq suv topaylik», - deya buloqning og'ziga borgan xizmatkorlari suv olmay qaytib kelibdilar va podshoga:

- Bu suvni ichib bo'lmaydi. Sababi, ilon zahrini suvga to'kibdi.

Yaxshiyamki qarchig'ay suvni to'kibdi, bo'lmasa zaharlanib o'lar edingiz, - deyishibdi. Podsho nihoyatda xafa bo'libdi. «Qarchig'ayim menga yaxshilik qilgan ekan,

men esa uni o'ldirdim», - deya afsus-nadomat chekibdi. Ammo, so'nggi pushaymon, o'zingga dushman, deganlaridek, endi kech bo'lgandi.

*Madina
SAIDMURODOVA,
Parkent tumanidagi
35 - muktabning
5- «A» sinf o'quvchisining arab
tilidan tarjimasi.*


TOPISHMOQLAR

Chiziqchali to'nim bor, Yashildir mening po'stim. Ichim esa qip-qizil, Qovun, handalak - do'stim. Qora, kichik danagim, Yozda otar palagim. Topolmadingmi hanuz, Nomimdir mening ...

Siyohrang yo och ko'kman, Mevam shirin va nordon. Yeyishni istasang gar, Yaxshilab yuvgin obdon. Menman mevalar zo'ri, Nomim mening ...

Qip-qizilman, dumaloq, Gapimga sen sol qulog. Kichkina shapkacham bor, O'zimga u biroz tor. Foydaliman, qilmang xor, Darmondorilar bisyor Tanisang, nomim ...

(auro) *Nargiza PAYZIYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Nafis san'at litseyi
o'quvchisi*



*Qo'sh sahifamizni
tengdoshlarining Dilrabo
DO'STQOBILLOVA va Shaxzoda
RIZAYEVAlar chizgan rasmlar
bilan bezatdik.*





HIYLAGAR BO'RI HAQIDA ERTAK

Qalin o'rmonda bir ochko'z bo'ri yashar ekan. U judayam qarib qolibdi, quyon va kiyikchalarni quvib, tutib yeishga ham yaramay qolibdi. Shuning uchun u doimo och yurarkan. Nima qilishini bilolmay, rosa boshi qotibdi va bir kuni chorasi topgandek bo'libdi. O'z uyasida shifoxona ochibdi. Oppoq xalat kiyib, ko'ziga ko'zoynak taqib olibdi-da, o'rmondagi betob bo'lib qolgan hayvonlarni davolay boshlabdi. Oppoq qalpog'ini bostirib kiyib olgani uchun uni hech kim tanimabdi. Bu yangilikdan xabar topgan Quyon xola tobi qochib qolgan quyonchasini uning yoniga olib kelibdi:

- Do'xtirjon, o'g'limning qulog'i og'rib, tuni bilan uxlamay chiqdi,-debdii.

Bo'ri quyonchani uyasiga olib kirib ketibdi-

da, mazza qilib yeb qo'yibdi. Tashqarida kutaverib toqati toq bo'lgan quyon mo'ralab qarasa, o'g'li yo'q emish.

- O'g'lim qani?-deb so'rabdi u.

- Qornimda!-javob beribdi Bo'ri semiz qornini silab va Quyonning o'zini ham shartta ushlab, yeb qo'yibdi...

Ertasi kuni Kiyik xola oyog'i lat yegan kiyikchasini olib kelibdi.

- Hozirdavolab tashlaymizza,-debbi Bo'ri va uni ham yeb qo'yib, ona Kiyikka tashlanibdi. Lekin Kiyik chaqqonlik bilan qochib qolibdi. Hayvonlar podshosi Sherning yoniga borib, bor gapni aytib beribdi. Bu gapdan Sherning g'azabi qaynab, Bo'rining yoniga oshiqibdi.

Bu paytda Bo'ri, o'ljalari o'z oyog'i bilan kelsa, qanday yaxshi-ya, deya Bo'rsiqchani yeb tugatayotgan ekan.

- Adabingni bermasammi seni,-deya na'ra tortibdi Sher. Uning vajohatini ko'rgan

keksa Bo'ri yuragi yorilib, o'lib qolibdi. Shunday qilib, o'rmon jonivorlari yolg'onchi «do'xtir»dan qutulishibdi.

Xurshid
TOJIBOYEV,
7 yosh.



HASHAROTLAR SAYYORASI

Bunga ishonish qiyin. Ammo yer yuzida yashaydigan odam boshiga 250 milliondan hasharot to'g'ri kelar ekan. Bu mayda jonivorlarning faoliyati natijalari hayratlanarli. Bir uuda yashovchi asalarilar yiliga 100 kg.gacha asal yig'isharkan. Malla chumolilar to'dasi bir yilda jami 200 kg. keladigan o'z dushmanlarini yo'qotishar ekan.

In qurayotgan ishchi asalarilar g'uj bo'lib olishadi. Natijada oralaridagi havo harorati

ko'tariladi. Bu in qurishda qurilish xom ashyosi bo'lgan mumni yumshatish kerak. Agar asalari yoki chumolilarni o'z to'dasidan ayirsangiz, ubir necha soat ichida halok bo'ladi. Ba'zi olimlarning fikricha, birodarlari ko'rinxay qolsa, hasharotlar hayajonlanganida o'zlaridan katta miqdorda quvvat chiqarib, natijada nobud bo'lisharkan.

Nigora ESHIMOVA.



Vo, ajabo!

ARILAR XUJUMI

Biz bilamizki, arilarga o'zimiz hujum qilmasak, ular bizlarga tegishmaydi. Biroq, Rossiyaning o'rmonlarida yashovchi arilar tegmaganga ham tegishar ekan. Yovvoyidek bo'lib qolgan arilar hujumidan beshta odam halok bo'lib, o'ntasi yarador bo'libdi.

Umida
AHMADXO'JAYEVA.



TONG Yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
MATBUOT VA AXBOROT
AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI XALQ
TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR IJTIMOIY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Qahramon
QURONBOYEV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinnbosari),
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV

Noshir «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib sahilalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.

“Sharq” nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida 46.291
nusxada ofset usulida bosildi.
Korxona manzili: “Buyuk
Turon” ko'chasi, 41.
Buyurtma № Г-961
Gazetani

Ma'suda IRISNAZAROVA
sahifaladi.
Navbatchi:
Muharrama PIRMATOVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi
№ 000137

Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri, Navoiy
ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-63-08
144-63-75